Toshkent viloyati
Angren shahri
Davlat xizmatlari markazi
tomonidan 2022-yil 31-mayda
509647-son reyestr
raqami bilan
“RO‘YXATGA OLINGAN”

“Birinchi rezinotexnika zavodi”
mas’uliyati cheklangan jamiyati
ishtirokchilarining
2022-yil 17-maydagi
4-son bayonnomasi bilan
“TASDIQLANGAN”

“BIRINCHI REZINOTEXNIKA ZAVODI” MAS’ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

TA’SIS SHARTNOMASI

(yangi tahrir)

Angren – 2022

“Birinchi rezinotexnika zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati
TA’SIS SHARTNOMASI

Toshkent viloyati, Angren shahri, Ipak yo‘li ko‘chasi, sanoat zonasi.

2022-yil 17-may

Bundan buyon birgalikda “Ishtirokchilar”, deb nomlanuvchi quyidagi yuridik shaxslar:

• “O‘zkimyosanoat” AJ;

• “Uzkimyoimpeks” MChJ.

Ushbu Ta’sis shartnomasini (bundan buyon matnda “Shartnoma” deb yuritiladi) quyidagilar to‘g‘risida imzoladilar:

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. “Birinchi rezinotexnika zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati (bundan buyon matnda “Jamiyat” deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari asosida tashkil etilgan.

1.2. Jamiyatning to‘liq firma nomi:

• o‘zbek tilida: “Birinchi rezinotexnika zavodi” mas’uliyati cheklangan jamiyati;

• rus tilida: Общество с ограниченной ответственностью “Birinchi rezinotexnika zavodi”;

• ingliz tilida: “Birinchi rezinotexnika zavodi” Limited Liability Company.

1.3. Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

• o‘zbek tilida: “BRZ” MChJ;

• rus tilida: OOO “BRZ”;

• ingliz tilida: “BRZ” LLC.

1.4. Jamiyatning joylashgan joyi (pochta manzili): O‘zbekiston Respublikasi, 110200, Toshkent viloyati, Angren shahri, Ipak yo‘li ko‘chasi, sanoat zonasi.

1.5. Jamiyat faoliyat muddati cheklanmagan.

2. JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI VA YO‘NALISHLARI

2.1. Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi “Angren EIZ” hududida konveyer lentalari, qishloq xo‘jaligi va avtomobillar shinalarini ishlab chiqarish, yangi turdagi rezinatexnika mahsulotlarini o‘zlashtirishning zamonaviy usullarini tatbiq etish,

eksportga mo'ljallangan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni kuchaytirishga yo'naltirilgan yagona texnik siyosatni amalga oshirish orqali foyda ko'rish.

2.2. Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadini bajarish uchun Jamiyat quyidagilarni amalga oshiradi:

• Ishlab chiqarishning yuqori barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat mahsulotlarini eksport hajmlarini oshirish, shu jumladan, mahsulotlar sotiladigan yangi bozorlarni o'zlashtirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish hisobiga tarkibiy islohotlarni, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashni yanada chuqurlashtirish;

• "Angren" EIZ hududida konveyer lentalari, qishoq xo'jaligi hamda avtomobil shinalari ishlab chiqarishni tashkil etish investitsion loyihani amalga oshirishni davom ettirish, obyektlarning butun kompleksini o'z vaqtida foydalanishi uchun ishga tushirish maqsadida uning qurilishiga ajratilgan moliyaviy manbalardan samarali foydalanishni ta'minlash, loyiha bo'yicha qurilish dasturini yillar kesimida bajarilishi borasida chora-tadbirlar ishlab chiqish va uning bajarilishini nazorat qilish, loyiha uchun zarur bo'lgan shartnomalarni tuzish;

• Import o'rnini bosish va ichki bozorni kerakli mahsulotlar va butlovchi buyumlar bilan ta'minlash jarayonlarini yanada chuqurlashtirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilar mahsulotlaridan ustuvor foydalanish asosida tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish;

• Ilmiy tadqiqot ishlarini, jumladan yangi tip shinalar dizayni yaratish doirasida yangi texnologiyalar va innovatsiya loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

• Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini va dasturiy mahsulotlarni keng joriy qilish, ushbu asosda boshqaruv samaradorligi oshirilishini, ishlab chiqarish xarajatlari va ishlab chiqariladigan mahsulot tannarxi kamaytirilishini, uning raqobatbardoshligini, shuningdek, jamiyat moliya-xo'jalik faoliyati shaffofligini kuchaytirilishini ta'minlash;

• Jamiyatning kadrlar salohiyatini mustahkamlash, texnik-muhandislar va boshqaruv kadrlar malakalarini oshirish, kooperatsiyani oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim va ilmiy muassasalar bilan kuchaytirish orqali ularning qayta tayyorlanishini tashkillashtirish, qattiq raqobatchilik sharoitlarida tarmoqning samarali faoliyat yuritishini ta'minlay oladigan yosh va iste'dodli mutaxassislarni jalb etish;

• Eksportga mahsulotlar sotish va yetkazib berish bozorlarini kengaytirish, buyurtmalar portfelini shakllantirishni va mahsulotlarning kafolatlangan sotilishini ta'minlash;

• Investitsiyalarni keng joriy qilish, ilg'or chet el firmalari va kompaniyalari bilan birga zamonaviy texnologiyalar negizida va yangi raqobatli afzalliklarni ta'minlaydigan qo'shma ishlab chiqarish va korxonalar tashkil qilish;

• Ilmiy texnika siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, texnika va texnologiyalarning yangi progressiv turlarini joriy qilish;

• Jamiyatning asosiy faoliyati rezinatexnika mahsulotlari (turli tipdagi avtomobil, yengil yuk avtomashinalariga mo'ljallangan, qishloq xo'jalik transporti shinalari, konveyer lentalari, turli rezina qorishmalari, xalq iste'moli tovarlari, rezina-press mahsulotlari va h.k.) ishlab chiqarish;

• Ilmiy-tekshirish, tajriba-konstruktorlik, loyiha-izlanish ishlarini amalga oshirish;

• Yuk va yo'lovchilarni avtotransportda tashish;

• Texnika, texnologiya va boshqa sohalardagi "nou-xau" larni mamlakat ichkarisida va chet ellarda sotish va sotib olish;

• Respublika hududida va chet ellarda ko'rgazma, kim oshdi savdolari va boshqa shunga o'xshash tadbirlarni tashkil etish va ularda qatnashish;

• Qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya faoliyatini olib borish;

• Korxona mablag'lari hisobidan, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar hisobidan shartnoma asosida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish;

• O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;

• Tashqi qarzlarni jalb qilishda Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi qaroriga muvofiq tashqi qarz miqdorlarini Jamiyatning biznes-rejasida aks ettirish;

• Tashqi qarzlar jalb etilishida jalb qilinadigan tashqi qarzga xizmat ko'rsatish xarajatlari (foiz stavkasi, komissiya va boshqa to'lovlar yig'indisi)ning yuqori chegarasi Davlat xaridlari ochiq va shaffof amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan belgilab berilgan miqdorlar doirasida, belgilangan miqdordan oshgan holatlarda esa Respublika komissiyasining ruxsati bilan amalga oshirish;

• O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga zid kelmaydigan boshqa ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini amalga oshiradi.

Litsenziya talab etuvchi barcha turdagi faoliyatlar, tegishli litsenziya olinganidan so'ng amalga oshiriladi.

3. JAMIYATNING USTAV FONDI

3.1. Jamiyatning ustav fondi **658 408 838 942 (olti yuz ellik sakkiz milliard to'rt yuz sakkiz million sakkiz yuz o'ttiz sakkiz ming to'qqiz yuz qirq ikki) so'm 06 tiyin**ni tashkil qiladi.

3.2. Ishtirokchlarning ustav fondidagi ulushlari quyidagicha:

- "O'zkimyosanoat" AJ ulushi 91,80 foiz yoki 604 408 838 942 so'm 06 tiyin;

- "Uzkimyoimpeks" MChJ ulushi 8,20 foiz yoki 54 000 000 000 so'm.

3.3. Jamiyat ishtirokchilari tomonidan ustav fondiga kiritiladigan va Jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar tomonidan pulsiz hissalarning pulli bahosi Jamiyatning ishtirokchilari tomonidan qonunda o'rnatilgan tartibda qabul qilinadigan qarori bilan tasdiqlanadi.

3.4. Qo'shimcha hissalar kiritilgan kundan boshlab bir oydan kechiktirmasdan Jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishi Jamiyat ishtirokchilarining hissalarini kiritish natijalarini tasdiqlash, shuningdek, Jamiyatning ta'sis hujjatlariga Jamiyat ustav fondi miqdorini ko'paytirish, qo'shimcha hissalarni kiritgan Jamiyat ishtirokchilari ulushlarining nominal qiymatini ko'paytirish, shuningdek, zaruriyat holatida Jamiyat ishtirokchilari ulushlarining miqdorlarini o'zgartirish bilan bog'liq o'zgartirishlarni kiritish to'g'risidagi qarorni qabul qilishi lozim.

4. ISHTIROKCHILARNING ULUSHNI KIRITISH BO'YICHA MAJBURIYATLARINI BUZGANLIKLARI UCHUN JAVOBGARLIK

4.1. Ulushini to'liq kiritmagan Ishtirokchi Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha o'z ulushining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

5. DAROMAD VA ZIYONLARNI TAQSIMLASH SHARTLARI VA TARTIBI

5.1. Jamiyatning budjetga va budjetdan tashqari jamg'armalarga qonun bilan belgilangan cheklovlarni hisobga olgan holda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'laganidan keyin olingan daromadi Ishtirokchilar o'rtasida ularning ustav fondidagi ulushlariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

5.2. Daromad oraliq davr yakunlari bo'yicha har chorakda, yarim yilda bir marta, yiliga bir marta taqsimlanishi mumkin. Daromadni taqsimlash to'g'risidagi qaror Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi tomonidan qabul qilinadi.

5.3. Ishtirokchilar Jamiyat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ziyonlarni o'z ulushlarining qiymati doirasida qoplaydilar. Ulushini to'liq kiritmagan Ishtirokchi Jamiyatning majburiyatlari bo'yicha o'z ulushining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladi.

5.4. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijasida yuzaga keladigan ziyonlar ushbu maqsadlar uchun tashkil etiladigan zaxira fondi hisobidan qoplanadi.

5.5. Zaxira fondi Jamiyat ustav fondining 15 (o'n besh) foizidan kam bo'lmagan miqdorida shakllantiriladi.

6. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

6.1. Jamiyatning boshqaruv organlari bo'lib quyidagilar belgilanadi:

- Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi – oliy boshqaruv organi;
- Yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi – bosh direktor.

6.2. Ishtirokchilar umumiy yig'ilishining vakolatlari (shu jumladan mutlaq vakolatlari), chaqirish, ko'rib chiqish masalalarni kiritish, qarorlar qabul qilish tartibi va muddatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Jamiyatning ustavi va boshqa lokal normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

6.3. Direktorning vakolatlari, muddati, javobgarligi va faoliyat yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, Jamiyat Ustavi, Direktor va Jamiyat o'rtasidagi mehnat shartnomasi, boshqa lokal normativ hujjatlar bilan belgilanadi.

7. ISHTIROKCHILARNING JAMIYATDAN CHIQISH TARTIBI

7.1. Ishtirokchi boshqa Ishtirokchilarning roziligidan qat'i nazar, har qanday vaqtda Jamiyatdan chiqib ketishi mumkin.

7.2. Jamiyatdan chiqib ketgan yoki chiqarib yuborilgan Ishtirokchining ulushi Jamiyatga o'tadi. Bunday holda Jamiyatdan chiqarib yuborilgan yoki chiqib ketgan Ishtirokchiga uning ulushining haqiqiy qiymatini yoki Ishtirokchining roziligi bilan, ustav fondidagi boshqa Ishtirokchilarning har qanday aktivlaridan tashqari, shunday qiymatdagi mol-mulkni natura, moddiy qimmatliklar holida to'lashi shart. Jamiyatga o'tgan ulush bir yil mobaynida boshqa Ishtirokchilarning qarori bilan uchinchi shaxslarga berilishi va/yoki sotilishi lozim.

7.3. Ishtirokchilarning Jamiyat ustav fondidagi ulushining merosxo'rlarga (qonun bo'yicha qonuniy vorislarga) o'tishi faqatgina boshqa Ishtirokchilarning roziligi bilan amalga oshirilishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH

8.1. Nizo va kelishmovchiliklar Ishtirokchilarning o'zaro kelishuvi yo'li bilan amaldagi qonun hujjatlari, Ta'sis shartnomasi va Ustavga asosan hal qilinadi.

8.2. Nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda ular O'zbekiston Respublikasining xo'jalik sudi orqali hal qilinadi.

9. YAKUNIY QOIDALAR

9.1. Shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va Jamiyat ustaviga muvofiq hal qilinadi.

10. JAMIYAT ISHTIROKCHILARI:

"O'zkimyosanoat" AJ nomidan
boshqaruv raisi **J. Mirzamahmudov**

M.O'.

"Uzkimyoimpeks" MChJ nomidan
direktor **T. Muhamedjanov**

M.O'.